

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

CHORIYEV MIRJALOL

**QOVUSHOQ-ELASTIK KO'P QATLAMLI SILINDRIK QOBIQQA
GARMONIK VA TURG'UN BO'LMAGAN TO'LQIN DIFRAKSIYASI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Fizika -matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertasiyasi

AVTOREFERATI

BUXORO–2025

**Fizika -matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико – математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Physical
and Mathematical Sciences**

Choriyev Mirjalol

Qovushoq-elastik ko'p qatlamli silindrik qobiqqa garmonik va turg'un
bo'lmagan to'liq difraksiyasi 3

Чориев Миржалол

Дифракция гармонических и нестационарных волн на многослойной
вязкоупругой цилиндрической оболочке..... 21

Choriev Mirjalol

Diffraction of harmonic and nonstationary waves by a multilayer
viscoelastic cylindrical shell..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

CHORIYEV MIRJALOL

**QOVUSHOQ-ELASTIK KO'P QATLAMLI SILINDRIK QOBIQQA
GARMONIK VA TURG'UN BO'LMAGAN TO'LQIN DIFRAKSIYASI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Fizika -matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertasiyasi

AVTOREFERATI

BUXORO –2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM964 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) universitet veb-saytida (www.https://bstu.uz/) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Ismoil Ibrohimovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ibraxim Mirzayev
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Ismayilov Kubaymurat
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "4" oktabr soat 11:³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№471 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (200100, Buxoro shahri, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99895) 604-44-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20 sentabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 9 avgust dagi №4 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X. Teshayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d. (DSc)

R.A. Sabirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.b.f.d. (PhD)

Z.I. Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d. (DSc) prof.

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi eng dolzarb muammolardan biri — seysmik faol hududlarda barpo etilayotgan yer osti inshootlarining zilzilaga chidamliligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash muammosi yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida portlash va seysmik to'lqinlar ta'sirida yuzaga keladigan yer osti inshootlarida kuchlanish va deformatsiyalarni, shuningdek, to'lqinlarning difraksiyasini o'rganishga hamda amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan zamonaviy yer osti inshootlarining ko'plab tarkibiy elementlariga dinamik yuklanishlar ta'sirida yuzaga keladigan rezonans hodisalarining oldini olish texnik vositalar hamda zamonaviy dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda, xususan, AQSh, Germaniya, Rossiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda konstruksiyalarning mustahkamligi va ishonchliligini oshirish, shuningdek, to'lqin ta'sirini hisobga olgan holda zamonaviy matematik modellar va hisoblash usullari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, hozirgi vaqtda xalqaro miqyosdagi yer osti inshootlarida qo'llanilayotgan kompozitsion materiallarning murakkab reologik xususiyatlari, xususan, ularning dissipativ va bir jinsli bo'lmagan tabiati, shuningdek, deformatsiyalanuvchan muhit bilan o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda yuzaga keladigan fizik-mexanik muammolarni hal qilishga qaratilgan zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar va hisoblash dasturlari ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham qurilish sohasi keng rivojlanib bormoqda. Xususan, yer osti inshootlari va kommunikatsiya tizimlarining turli dinamik yuklamalar ostida ishonchli ishlashini ta'minlovchi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Shu sababli, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda, to'lqin ta'sirini o'rganish va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish katta amaliy ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli "O'zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹ gi Farmoni bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mazkur tadqiqot yo'nalishida ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"² gi qarori, 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-sonli "Bino va inshootlarning zilzilaga

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 30-maydagi PF-144-son "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

bardoshlilikini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"³gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning IV. "Matematika, mexanika, inshootlarning seysmik dinamikasi va informatika" yo'nalishi doirasida amalga oshirildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Ko'p qatlamli silindrik qobiqning seysmik to'lqin ta'siridagi masalalari taniqli xorijiy olimlar, jumladan, Ilyushin A.A., Shemyakin Ye.I., Uayt, Axenbax J.D., Troyanovskiy I.Ye., Slepyan L.I., Fotiyeva N.N., Bulichev N.S. va boshqalar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan. Ushbu muammoni hal qilish masalasi bo'yicha O'zbekistonlik olimlar ham o'zlarining katta hissalarini qo'shishgan, jumladan: Urazbayev M.T., Shirinqulov T.Sh., Raxmatulin X.A., Kabulov V.K., Rashidov T.R., Muborakov Ya.N., Mardonov B.M., Sultanov K.S., Mamatqulov Sh.M., Mirsaidov M.M., Mirzayev I., Xojimetov G'X., Ishanxo'jayev A.A., Mavlonov T.M., Yuldashev Sh.S., Abdusattorov A.A., Safarov I.I., Xudaynazarov H.H., Teshayev M.X., Usarov M.K., Usmonov B.Sh. va boshqalar. Ular silindrik va sferik jismlarning dinamik xususiyatlarini baholashda materiallarning reologik xususiyatlarini inobatga olib, parametrlarni aniqlashning samarali usullarini ishlab chiqishgan.

Hozirgi vaqtda cheksiz elastik muhit bilan bog'liq bo'lgan dissipativ tizimlar dinamikasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning yechimi tebranishlar va to'lqin difraksiyasining yangi qonuniyatlarini ochishga imkon beradi. Ishonchli usullar va algoritmlarni yaratish dinamik mustahkamlik va barqarorlikning ko'plab muammolarini, xususan, mashinasozlik va yer osti inshootlarining qurilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassaasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya institutida 2015-2024 yillarga mo'ljallangan "Matematikaning ilmiy-amaliy muammolari" ilmiy-tadqiqot rejasining ilmiy-texnik dasturiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi qovushqoq-elastik muhitda joylashgan ko'p qatlamli silindrik qobiqqa bo'ylama yoki ko'ndalang (garmonik yoki noturg'un) to'lqinlar yuklanish masalalarining matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmlarini ishlab chiqishdan hamda sonli natijalar olib tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'ylama (yoki ko'ndalang) to'lqinlar ta'siri ostida qovushqoq-elastik muhit bilan kontaktda bo'lgan ko'p qatlamli silindrik qobiqlarda hosil bo'ladigan

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 17- apreldagi PQ-161-sonli "Bino va inshootlarning zilzilaga bardoshlilikini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini topish metodikasi va algoritmlarini ishlab chiqish;

garmonik to‘lqin ta’sirida qovushqoq-elastik muhitdagi ikki va uch qatlamli silindrik qobiqlarda hosil bo‘ladigan kuchlanganlik holatiga to‘lqin uzunligi va chastotaga bog‘liq baho berish;

nostatsionar to‘lqin ta’sirida qovushqoq-elastik muhitdagi ikki qatlamli silindrik qobiqlarda hosil bo‘ladigan kuchlanishlarni topish uchun Furye integral almashtirishi Romberg usullariga asoslangan algoritmlarini ishlab chiqish;

energiya dissipatsiyasini hisobga olgan holda, qovushqoq-elastik silindrik qobiqlarga garmonik va nostatsionar to‘lqinlar ta’sirida hosil bo‘ladigan kuchlanish va deformatsiya amplitudasini chastotaga bog‘liq holda o‘rganish hamda olingan natijalarni solishtirma baholash.

Tadqiqotning obyekti - qovushqoq-elastik muhitdagi ikki va uch qatlamli silindrik qobiqlar.

Tadqiqotning predmeti - uzun qovushqoq-elastik ikki (yoki uch) qatlamli silindrik qobiqqa bo‘ylama (yoki ko‘ndalang) statsionar bo‘lmagan to‘lqin yuklanganda silindrik qobiqda hosil bo‘ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini geometrik va fizik-mexanik parametrlarga bog‘liq holda baholash masalalari tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari - Tadqiqotda matematik-fizik tenglamalardan foydalanilgan hamda integral shakl almashtirish usullari (Furye va Laplas), muzlatish usuli, Myuller usuli va Gauss usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qovushqoq-elastik muhitdagi silindrik jismda statsionar bo‘lmagan to‘lqin difraksiyasi jarayonida kuchlanish va deformatsiyalarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi muhitning uch parametrli Rijanitsin–Koltunov yadrosi parametrlariga bog‘liq analitik formulasi Furye integral almashtirishiga asoslanib ilk marta olingan.

qatlam qalinligi kamayganda, nisbatan qattiq qatlamlar uchun kuchlanish konsentratsiyasining ortishi, yumshoq qatlamlar uchun esa ma’lum oraliqda kuchlanish konsentratsiyasining kamayishi aniqlangan.

garmonik to‘lqin ta’sirida qovushqoq-elastik muhitdagi ikki va uch qatlamli silindrik qobiqlarda hosil bo‘ladigan dinamik kuchlanish–deformatsiyalanish holati uzun to‘lqinlar va kichik chastotalarda (10 Gts gacha) o‘zining maksimal qiymatlariga erishuvi dispersion munosabatlardan topilgan.

qovushqoq-elastik silindrik qobiqlarda nostatsionar (impulsi) to‘lqinlar ta’sirida hosil bo‘ladigan dinamik kuchlanish va deformatsiyalar vaqtning boshlang‘ich davrida maksimal qiymatlarga erishib, keyinchalik statik kuchlanish va deformatsiyalarga asimptotik yaqinlashib borishi hamda ularning parametrlar bilan bog‘liq nomanoton o‘zgarish oraliqlari mavjudligi aniqlangan.**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ikki va uch qatlamli silindrik qobiqlarda nostatsionar to‘lqinlar ta’sirida hosil bo‘ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini hisoblash algoritmi va dasturi ishlab chiqilgan;

ikki va uch qatlamli silindrik qobiqlarda garmonik to‘lqinlar ta’sirida hosil bo‘ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini hisoblash algoritmlari ishlab chiqilgan;

ikki va uch qatlamli silindrik qobiqlarda bo‘ylama va ko‘ndalang yuklanish natijasida yuzaga kelgan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati solishtirma baholangan. Olingan natijalar yer osti inshootlarining kuchlanganlik va deformatsiyalanganlik holatini kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chegaraviy masalalarni to‘g‘ri shakllantirish, olingan matematik ifodalarning qat’iyligi, asosli yechish usullarini qo‘llash, yechimlarning to‘g‘riligini baholash va boshqa olimlar tomonidan olingan yechimlar bilan taqqoslash orqali asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Qovushqoq-elastik muhitdagi (dissipativ bir jinsli bo‘lmagan) ko‘p qatlamli silindrik qobiqlarda to‘lqin ta’sirida hosil bo‘ladigan difraktsiya jarayonini hamda dinamik kuchlanish va deformatsiyalar holatini topish uchun ishlab chiqilgan metodika va algoritmi deformatsiyalanuvchi qattiq jismning to‘lqin dinamikasi nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, yer osti inshootlariga seysmik to‘lqinlar ta’sir etganda ularning mustahkamligini materiallarning qovushqoqligini hisobga olish orqali hisoblash usullarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotdagi qovushqoq-elastik ko‘p qatlamli silindrik qobiqqa garmonik va turg‘un bo‘lmagan to‘lqinlar difraktsiyasi masalalarini yechish metodikasi va algoritmi asosida olingan natijalar asosida:

bir jinsli bo‘lmagan ko‘p qatlamli silindrik qobiqlarning dinamik kuchlanish–deformatsiya holatini solishtirma baholashga yo‘naltirilgan xususiy hosilali, kompleks koeffitsiyentli differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan IL-21071166-sonli “Shamolning past tezligi uchun mo‘ljallangan vertikal o‘qli shamol turbinasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 2025-yil 24-yanvardagi 71-3-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, shamol turbinalarining samarali ishlashini ta’minlash maqsadida tuzilgan matematik model tenglamalarining to‘g‘riligini tekshirish imkoniyati yaratilgan.

dissertatsiyada ishlab chiqilgan birinchi tartibli, bir jinsli bo‘lmagan xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish metodikasidan Toshkent kimyo-texnologiya institutida 2016–2020 yillarda bajarilgan OT-F4-01 “Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko‘p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo‘laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta’sirida chiziqli bo‘lmagan dinamik kuchlanish–deformatsiya holatini o‘rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya instituti, 2025-yil 6-fevral, 1/01-358-sonli ma’lumotnoma). Natijada, qovushqoq suyuqlik oquvchi, ko‘ndalang kesimi silindrik shakldagi kompozit quvurlarni dinamik yuklanishlar ta’sirida yuzaga keladigan kuchlanish–

deformatsiya holati aniqlanib, rezonans hodisasi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan sohalarni oldindan bilish imkoniyati yaratilgan. **Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 24 ta ilmiy ish chop qilingan. Ulardan 10 tasi ilmiy jurnallarda, 14 tasi esa ilmiy ishlar to‘plamlarida va turli anjuman materiallarida nashr qilingan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilgan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik ko‘p qatlamli silindrik qobiqqa garmonik va nostatsionar to‘lqin difraksiyasi masalasiga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida, garmonik va noturg‘un to‘lqinlar ta‘sirida chuqur o‘rnatilgan silindrik (ko‘ndalang kesimi turlicha bo‘lgan) quvurlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan hamda adabiyotlar tahlili asosida xulosalar qilingan.

Dissertatsiyaning **“Garmonik va statsionar bo‘lmagan to‘lqinlarning silindrik jismlarga yuklanishi masalasining matematik qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ko‘p qatlamli silindrik jismda to‘lqin yuklanishi masalalarning matematik qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Ko‘rib chiqilayotgan barcha tizimlar qovushqoq-elastik va izotrop hisoblanadi. Masala elastiklik nazariyasining tekis deformatsiya holati masalasiga olib kelinadi va hisob sxemasi (1-rasm) quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi.



1-rasm. Ikki qatlamli jisnga elastik to‘lqinlar ta‘sirining hisob sxemasi

Qovushqoq- elastik muhitdagi ko'p qatlamli silindrik jismga to'liqin yuklanishi masalasi elastik nazariyasining Lamé tenglamasi orqali ifodalanadi:

$$\bar{\mu}_n \nabla^2 \bar{u} + (\bar{\lambda}_n + \bar{\mu}_n) \text{grad div } \bar{u} = \rho_n \frac{\partial^2 \bar{u}}{\partial t^2} \quad (n = 1, 2, 3, \dots, N) \quad (1)$$

Agar ko'p qatlamli muhitda joylashgan silindrik qatlamlar yupqa bo'lsa, Kirxgof-Lyav yoki Timoshenko gipotezalarini qanoatlantiradi:

$$L\bar{U} - L_0 \int_{-\infty}^t R_L(t-\tau) L\bar{U}(\tau) d\tau = \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0 h} \bar{p} + \rho_1 \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0} \left(\frac{\partial^2 \bar{U}}{\partial t^2} \right), \quad (2)$$

bunda $\bar{\lambda}_j, \bar{\mu}_j$ -operator ko'rinishdagi elastiklik modullari:

$$\bar{\lambda}_j f(t) = \lambda_{0j} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{\lambda}^{(j)}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right]; \quad \bar{\mu}_j f(t) = \mu_{0j} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{\mu}^{(j)}(t-\tau) f(\tau) d\tau \right],$$

$$L = \begin{pmatrix} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1-\nu_0}{2R^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} & \frac{1+\nu_0}{2R} \frac{\partial^2}{\partial z \partial \theta} & \frac{\nu_0}{R} \frac{\partial}{\partial z} \\ \frac{1+\nu_0}{2R} \frac{\partial^2}{\partial z \partial \theta} & \frac{1+\nu_0}{2} (1+4a) \frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1}{R^2} (1+a) \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} & \frac{1}{R^2} \frac{\partial}{\partial \theta} - a(2-\nu) \frac{\partial^3}{\partial z^2 \partial \theta} - \frac{a}{R^2} \frac{\partial^3}{\partial \theta^3} \\ \frac{\nu}{R} \frac{\partial}{\partial z} & \frac{1}{R^2} \frac{\partial}{\partial \theta} - a(2-\nu) \frac{\partial^3}{\partial z^2 \partial \theta} - \frac{a}{R^2} \frac{\partial^3}{\partial \theta^3} & \frac{1}{R^2} + a \left(\frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1}{R^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} \right)^2 \end{pmatrix}.$$

Bunda E_{01} - Yung moduli; $\bar{u} = \bar{u}(u_r, u_\theta, u_z)$ - qobiq o'rta sirtining ko'chish vektori (Kirxgof-Lyav gipotezalari o'rinli bo'lganda). Bu yerda $\bar{u}_j(u_{rj}, u_{\theta j}, u_{zj})$ - ko'chish vektori bo'lib, r, θ, z, t - ning funksiyasi; ρ_j - qatlam materialining zichligi; γ - qobiq materialining zichligi; $R_L(t-\tau)$ - relaksatsiya yadrosi; λ_{0j}, μ_{0j} - qatlamning qovushqoqlik nazariyasidagi oniy elastiklik moduli, E_{01} - qobiqning oniy elastiklik moduli.

Agar silindrik inshoot qatlamlardan tashkil topgan bo'lsa, u holda uning harakat tenglamalari (2) ko'rinishda bo'ladi. Quyidagicha kontakt va chegaraviy shartlar qo'yiladi:

1. Agar muhitda silindrik qobiq joylashgan bo'lsa, u holda kontaktda quyidagi chegaraviy shart bajariladi.

$$u_{r1} \Big|_{r=R_0+\frac{h}{2}} = U_r \Big|_{r=R_0+\frac{h}{2}}; \quad u_{\theta 1} \Big|_{r=R_0+\frac{h}{2}} = U_\theta \Big|_{r=R_0+\frac{h}{2}}; \quad u_{z1} \Big|_{r=R_0+\frac{h}{2}} = U_z \Big|_{r=R_0+\frac{h}{2}},$$

$$p_r = \sigma_{rr1}; \quad p_\theta = \sigma_{r\theta 1}; \quad p_z = \sigma_{rz1} \quad (3)$$

2. Agar silindrik jism qatlamlardan tashkil topgan bo'lsa, u holda uning harakati tenglamalari (1) ko'rinishda bo'ladi. Qatlamlar orasida qattiq mahkamlanganlik yoki sirpanuvchanlik sharti qo'yiladi:

$$r = r_N : \quad \sigma_{rrk} = \sigma_{rr(k+1)}; \quad \sigma_{r\theta k} = \sigma_{r\theta(k+1)}; \quad \sigma_{rz k} = \sigma_{rz(k+1)};$$

$$u_k = u_{k+1}; \quad \mathcal{G}_k = \mathcal{G}_{k+1}; \quad w_k = w_{k+1}. \quad (4)$$

3. Qatlamlar orasida sirpanuvchanlik sharti (qatlamlar orasida qarshilik bo'lmasa) qo'yiladi

$$r = r_N : \quad \sigma_{rm} = \sigma_{rr(n+1)}; \quad \sigma_{r\theta n} = \sigma_{rz n} = 0; \quad \sigma_{r\theta(n+1)} = \sigma_{rz(n+1)} = 0; \quad w_n = w_{n+1}. \quad (5)$$

4. Agar $r=r_1$ birinchi qatlam suyuqliksiz yoki to'ldiruvchisiz bo'lsa, u holda kuchlanishlardan ozod bo'lish sharti qo'yiladi

$$r=r_N: \sigma_{rrN}=0; \sigma_{r\theta N}=0; \sigma_{rzN}=0. \quad (6)$$

5. Agar inshootdan radial koordinata cheksizlikka intilsa, u holda bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiali Zommerfeldning yutilish shartini qanoatlantiradi

$$\lim_{r \rightarrow \infty} r\varphi = const, \quad \lim_{r \rightarrow \infty} r \left(\frac{\partial \varphi}{\partial r} - ik\varphi \right) = 0,$$

$$\lim_{r \rightarrow \infty} r\psi = const, \quad \lim_{r \rightarrow \infty} r \left(\frac{\partial \psi}{\partial r} - ik_2\psi \right) = 0. \quad (7)$$

Silindrik qobiqning va uning atrofidagi muhitdan tushayotgan garmonik to'lqinlar natijasida yuzaga keladigan dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash talab qilinadi (1-rasm). Silindrik qatlamga (qobiqqa) P, SH yoki SV turlardagi garmonik to'lqinlardan biri ta'sir qiladi, deb faraz qilamiz:

$$\psi^{(p)} = \Psi_0^{(p)} \sin \theta_0 e^{i\alpha(x-ct)} \sum_{n=1}^{\infty} E_n b_{n1} J_n(\delta_1 r) \sin n\theta, \varphi^{(p)} = 0, \chi^{(p)} = 0; ,$$

$$\varphi^{(p)} = U_0^{(p)} e^{i\alpha(x-ct)} \sum_{n=1}^{\infty} E_n a_{n1} J_n(\gamma r) \cos k\theta, \psi^{(p)} = 0, \chi^{(p)} = 0; ,$$

$$\chi^{(p)} = -X_0^{(p)} \sin \theta_0 e^{i\alpha(x-ct)} \sum_{n=0}^{\infty} E_n c_{n1} J_n(\delta_1 r) \sin k\theta, \varphi^{(p)} = 0, \psi^{(p)} = 0; \quad (8)$$

bu yerda $\Psi_0^{(p)}, U_0^{(p)}, X_0^{(p)}$ - tushayotgan to'lqinlarning amplitudalari; J_n - birinchi turdagi silindrik Bessel funksiyasi.

Statsionar bo'lmagan to'lqinlar ta'sirida tushayotgan yuklanish vaqt funksiyasi sifatida bosqichli funksiya ko'rinishida qabul qilinadi. Qobiq yoki silindr chegarasida vaqt bo'yicha quyidagi ko'rinishdagi kuchlanish ta'sir etsin:

$$\sigma_{xx}^{(p)} = \sigma_0 H(\hat{t}); \sigma_{yy}^{(p)} = \sigma_0 \frac{V_N}{1-V_N} H(\hat{t}) \quad (9)$$

bu yerda $H(\hat{t})$ — Xevisaydning birlik funksiyasi.

To'ldiruvchili silindrik qobiq va uni o'rab turgan muhit uchun tuzilgan xususiy hosilali differensial tenglamalarda ko'chish vektori bo'ylama va ko'ndalang to'lqin potentsiallari orqali ifodalanadi, bunda Grin–Lemb almashtirishlari bajariladi.

$$\bar{u} = grad \varphi + rot \bar{\psi}, \quad rot \bar{\psi} = 0, \quad (10)$$

bu yerda φ – bo'ylama to'lqinlarning potentsiali; $\bar{\psi}(\psi_r, \psi_\theta, \psi_z)$ - ko'ndalang to'lqin potentsiali.

Silindrik koordinatalar sistemalarida siljishlar, deformatsiyalar va siljish potentsiallari vektorlari quyidagicha ifodalanadi:

$$u_r = \frac{\partial \varphi}{\partial r} + \frac{1}{r} \frac{\partial \psi_z}{\partial \theta} - \frac{\partial \psi_\theta}{\partial z}; \quad u_\theta = \frac{1}{r} \frac{\partial \varphi}{\partial \theta} + \frac{\partial \psi_r}{\partial z} - \frac{\partial \psi_z}{\partial r}; \quad u_z = \frac{\partial \varphi}{\partial z} + \frac{\partial \psi_\theta}{\partial r} + \frac{\psi_\theta}{r} - \frac{1}{r} \frac{\partial \psi_r}{\partial \theta}; \quad (11)$$

$$\nabla^2 \varphi - \frac{1}{c_p^2 \Gamma_\kappa} \frac{\partial^2 \varphi}{\partial t^2} = 0; \quad \nabla^2 \psi_z - \frac{1}{c_s^2 \Gamma_\kappa} \frac{\partial^2 \psi_z}{\partial t^2} = 0; \quad \nabla^2 \psi_\theta - \frac{\psi_\theta}{r^2} + \frac{2}{r^2} \frac{\partial \psi_r}{\partial \theta} - \frac{1}{c_s^2 \Gamma_\kappa} \frac{\partial^2 \psi_\theta}{\partial t^2} = 0$$

$$\nabla^2 \psi_r - \frac{\psi_r}{r^2} - \frac{2}{r^2} \frac{\partial \psi_\theta}{\partial \theta} - \frac{1}{c_s^2 \Gamma_\kappa} \frac{\partial^2 \psi_r}{\partial t^2} = 0.$$

Disipativ mexanik tizimlarning tekis (yoki silindrik) jismlarda bo‘ylama (ko‘ndalang) to‘lqinlarning tarqalishi ko‘rib chiqiladi. (11) muammoning yechimi quyidagi ko‘rinishda qidiriladi:

$$\left. \begin{aligned} \varphi_k(r, \theta, z, t) &= \sum_{n=0}^{\infty} \varphi_n(\alpha_k r) \begin{Bmatrix} \cos n\theta \\ -\sin n\theta \end{Bmatrix} e^{\pm i\gamma_{pk} z} e^{-i\omega t}; \\ \psi_{rk}(r, \theta, z, t) &= \sum_{n=0}^{\infty} \psi_{nr}(\beta_k r) \begin{Bmatrix} \sin n\theta \\ -\cos n\theta \end{Bmatrix} e^{\pm i\gamma_{pk} z} e^{-i\omega t}; \\ \psi_{\theta k}(r, \theta, z, t) &= \sum_{n=0}^{\infty} \psi_{n\theta}(\beta_k r) \begin{Bmatrix} \cos n\theta \\ -\sin n\theta \end{Bmatrix} e^{\pm i\gamma_{pk} z} e^{-i\omega t}; \\ \psi_{zk}(r, \theta, z, t) &= \sum_{n=0}^{\infty} \psi_{nz}(\beta_k r) \begin{Bmatrix} \sin n\theta \\ \cos n\theta \end{Bmatrix} e^{\pm i\gamma_{pk} z} e^{-i\omega t}; \end{aligned} \right\} \quad (12)$$

Bu yerda n -butun son; γ_{pk} - to‘lqin soni; ω - chastota; $r = \frac{r_1}{a_0}$, $z = \frac{z_1}{a_0}$.

Topilgan ko‘chishlar va kuchlanishlarni chegaraviy shartlarga qo‘yilib, quyidagi ko‘rinishdagi kompleks koeffitsiyentli tenglamalar sistemasiga kelinadi va hosil bo‘lgan sistemadan $A_{nj}, B_{nj}, C_{nj}, L_{nj}, M_{nj}, Z_{nj}$ ($j=1, 2, \dots, N$) noma’lumlar aniqlanadi:

$$[C]\{\mathbf{q}\} = \{\mathbf{P}\}. \quad (13)$$

Bu yerda $\{\mathbf{q}\} = [A_{n1}, B_{n1}, C_{n1}, L_{n1}, M_{n1}, Z_{n1}, \dots, A_{nN}, B_{nN}, C_{nN}, L_{nN}, M_{nN}, Z_{nN}]^T$,

$\{\mathbf{P}\} = [P_{1N}, P_{2N}, P_{3N}, \dots, 0, 0]^T$ -tashqi yuklamalar matritsasi; $[C]$ - $(4N * 4N)$ o‘lchamli kvadrat matritsa. Kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalar sistemasi (13) noma’lumlarni ketma-ket yo‘qotish usuli, ya’ni Gauss usuli yordamida yechiladi. Statsionar bo‘lmagan muammolarni hal qilish uchun Furye integral almashtirishlari usuli qo‘llaniladi. Teskari Furye almashtirilishi Romberg usuli yordamida sonli amalga oshiriladi.

Dissertatsiyaning **“Qovushoq-elastik ko‘p qatlamli silindrik jismda garmonik to‘lqinlarning difraksiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobida Silindrik qobiqdagi garmonik to‘lqinlarning difraksiyasi masalasi o‘rganilgan. Muammo siljish potentsiallari yordamida hal etilgan. Yechish usuli va algoritmi ishlab chiqilgan hamda garmonik to‘lqin (yoki seysmik) zonalar uchun akademiklar A.A. Ilyushin va T.R. Rashidovlar tomonidan ishlab chiqilgan seysmo-dinamik nazariyaga muvofiq hisoblash natijalari bilan taqqoslangan. O‘rganilayotgan masalalar elastiklik nazariyasining tekis holatiga keltirilgan.

Tekis garmonik to‘lqinlar ta’sirida qatlam va qobiqning kuchlanish-deformatsiya holatini aniqlash uchun siljish va kuchlanishlar quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$u_r = \frac{\partial \varphi}{\partial r} + \frac{1}{r} \frac{\partial \psi_\theta}{\partial \theta}, u_\theta = \frac{1}{r} \frac{\partial \varphi}{\partial \theta} - \frac{\partial \psi_\theta}{\partial r}; \quad (14)$$

$$\frac{1}{2\mu} \sigma_{rr} = \frac{(1-\nu)}{(1-2\nu)} \alpha^2 \varphi + \frac{1}{r} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial r} + \frac{1}{r} \frac{\partial^2 \varphi}{\partial \theta^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial \psi}{\partial r} - \frac{\partial^2 \psi}{\partial r \partial \theta} \right),$$

$$\frac{1}{2\mu} \sigma_{\theta\theta} = \frac{-\nu}{(1-2\nu)} \alpha^2 \varphi + \frac{1}{r} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial r} + \frac{1}{r} \frac{\partial^2 \varphi}{\partial \theta^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial \psi}{\partial \theta} - \frac{\partial^2 \psi}{\partial r \partial \theta} \right), \quad (15)$$

$$\frac{1}{2\mu} \sigma_{r\theta} = \frac{1}{2} \beta^2 \psi + \frac{1}{r} \left(\frac{\partial \varphi}{\partial r} + \frac{1}{r} \frac{\partial^2 \varphi}{\partial \theta^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial \psi}{\partial \theta} - \frac{\partial^2 \psi}{\partial r \partial \theta} \right).$$

Tushuvchi bo‘ylama to‘lqinlar potentsiali quyidagi ko‘rinishda olinadi:

$$\varphi_1^{(p)} = \varphi_0 \sum_{n=0}^{\infty} (E_n i^n J_n(\alpha_1 r) \cos(n\theta)) e^{-i\omega t}, \psi_1^{(p)} = 0 \quad (16)$$

bu yerda $E_n = \{1, n=0; 2, n \geq 1\}$.

Muhitdagi qobiqdan qaytgan to‘lqin potentsiallari quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{pmatrix} \varphi^{(s)} \\ \varphi^{(f)} \\ \varphi^{(\xi)} \end{pmatrix} = e^{i\omega t} \sum_{n=0}^{\infty} \cos(n\theta) \begin{cases} A_n H_n^{(1)}(\alpha_1 r), & r \geq c, \\ C_n H_n^{(1)}(\alpha_2 r) + D_n H_n^{(2)}(\alpha_2 r), & \text{bu yerda } b \leq r \leq c, \\ C_n H_n^{(1)}(\alpha_3 r) + Q_n H_n^{(2)}(\alpha_3 r), & a \leq r \leq b, \end{cases} \quad (17)$$

$$\begin{pmatrix} \psi^{(s)} \\ \psi^{(f)} \\ \psi^{(\xi)} \end{pmatrix} = e^{i\omega t} \sum_{n=0}^{\infty} \sin(n\theta) \begin{cases} B_n H_n^{(1)}(\beta_1 r) & r \geq c, \\ L_n H_n^{(1)}(\beta_2 r) + M_n H_n^{(2)}(\beta_2 r) & \text{bu yerda } b \leq r \leq c, \\ F_n H_n^{(1)}(\beta_3 r) + Z_n H_n^{(2)}(\beta_3 r) & a \leq r \leq b, \end{cases} \quad (18)$$

bu yerda $\alpha_j^2 = \frac{\omega^2}{C_{p_j}}$, $\beta_j^2 = \frac{\omega^2}{C_{p_j}}$, ($j=1,2,3$).- mos keladigan tashqi va ichki

qatlamlarning to‘lqin soni.

Yuqoridagi ixtiyoriy konstantalar $A_n, B_n, C_n, D_n, L_n, M_n$ chegara shartlaridan aniqlanadi. Chegara shartlariga ko‘chish va kuchlanishlar (15) ni qo‘yib, kompleks algebraik tenglamalar tizimini olamiz:

$$[C_n] \{q_n\} = \{P_n\}, \quad (19)$$

Bu yerda $[C_n]$ — kvadrat kompleks matritsa, $\{P_n\}$ esa tashqi yuklanishlarning ustun-vektoridir. Sirpanish kontakti sharti (5) bo‘yicha, kompleks algebraik tenglamalar tizimi (19) ning elementlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$C(1,3) = C(1,2) = P(1) = 0, C(3,1) = C(3,2) = P(3) = 0. \quad (20)$$

(19)-sonli tenglamadagi matritsaning qolgan elementlari o‘zgarishsiz qoldiriladi. Kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalar tizimi (19) Gauss usuli bilan yechiladi.

Qobiqlardagi ko‘chish va kuchlanishlar quyidagicha bo‘ladi:


$$U_\theta^\xi = \sum_{n=0}^{\infty} [G_n H_n^{(1)}(\alpha_3 r) + Q_n H_n^{(2)}(\alpha_3 r)] + [F_n H_n^{(1)}(\beta_2 r) + Z_n H_n^{(2)}(\beta_3 r)] \sin(n\theta) e^{-i\omega t},$$

$$U_r^\xi = \sum_{n=0}^{\infty} [\beta(\alpha_3 r) + Q_n H_n^{(2)}(\alpha_3 r)] + \frac{n}{r} [F_n H_n^{(1)}(\beta_3 r) + Z_n H_n^{(2)}(\beta_3 r)] \cos(n\theta) e^{-i\omega t}, \quad (21)$$

$$\begin{aligned}
\sigma_{r\theta}^{(\xi)} = & \sum_{n=0}^{\infty} \zeta_{\xi} p \frac{1}{2} \beta_3 \left(F_n H_n^{(1)}(\beta_3 r) + Z_n H_n^{(2)}(\beta_3 r) \right) + \frac{1}{p} F_n H_n^{(1)'}(\beta_3 r) Z_n H_n^{(2)'}(\beta_3 r) - \\
& - \frac{n^2}{p} \left(F_n H_n^{(1)}(\beta_3 r) + Z_n H_n^{(2)}(\beta_3 r) \right) + \frac{n}{p} \left(G_n H_n^{(1)}(\alpha_3 r) + Q_n H_n^{(2)}(\alpha_3 r) \right) - \\
& n \left(G_n H_n^{(1)'}(\alpha_3 r) + Q_n H_n^{(2)'}(\alpha_3 r) \right) \sin(n\theta) e^{-i\omega t}, \\
\sigma_{rr}^{(\xi)} = & \sum_{n=0}^{\infty} \zeta_{\xi} p \frac{(1-\nu)}{(1-2\nu)} \alpha_3^2 \left(G_n H_n^{(1)}(\alpha_3 r) + Q_n H_n^{(2)}(\alpha_3 r) \right) + \frac{1}{r} G_n H_n^{(1)'}(\alpha_3 r) + \\
& Q_n H_n^{(2)'}(\alpha_3 r) - \frac{n^2}{r} \left(G_n H_n^{(1)}(\alpha_3 r) + Q_n H_n^{(2)}(\alpha_3 r) \right) + \frac{n}{r} \left(F_n H_n^{(1)}(\beta_3 r) + Z_n H_n^{(2)}(\beta_3 r) \right) - \\
& n \left(F_n H_n^{(1)'}(\beta_3 r) + Z_n H_n^{(2)'}(\beta_3 r) \right) \cos(n\theta) e^{-i\omega t}.
\end{aligned} \tag{22}$$

Bu yerda $\zeta_{\xi p} = \frac{\mu_{\xi}}{\mu_p}$, μ_{ξ} – ichki qatlamning Lamé koeffitsiyenti.


Yuqoridagi hisoblashlar orqali quyidagi sonli natijalar olindi.




2-rasm. Qobiqdagi kuchlanish omillarining chastotaga bog‘liq ravishda o‘zgarishi (muhit–qatlam–qobiq tizimi, bunda qatlam qovushqoq-elastik hisoblanadi). 1. $\frac{E_2}{E_0} = 0,1$; 2. $\frac{E_2}{E_0} = 0,3$; 3. $\frac{E_2}{E_0} = 0,4$

Grafik tahlillar shuni ko‘rsatadiki (2-rasm), qobiq va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir natijasida muhitda induksiyalanadigan kuchlanishlar qobiqdagi kuchlanish darajasini 20–25% ga kamaytiradi. Bu holat muhitning deformatsiyalarga nisbatan dissipativlovchi xususiyatga ega ekanligini hamda to‘lqin energiyasining ma’lum bir qismi muhit tomonidan yutilishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, yuqori chastotali yuklanishlar sharoitida interfeys sohasida kuchlanish amplitudalari farqi vujudga keladi.

Quyidagi 3- va 4-rasmlarda muhitning qovushqoq-elastik va elastik bo‘lgan holati uchun sonli natijalar olingan. Agar qovushqoqlik hisobga olinsa, kontur kuchlanish $|\sigma_{\theta\theta}^*|$ ni kamaytirish mumkin ekan. 4 –rasmdan xulosa shuki, $|\sigma_{\theta\theta}^*|$ ning to‘lqin soniga bog‘liqlik tabiati elastik holat bilan bir xil, lekin $\sigma_{\theta\theta}^*$ ning maksimal qiymati 10-15% ga pastroq ekan.






3-rasm. Kontur kuchlanishining to‘lqin soniga hamda muhitning Puasson koeffitsiyentiga bog‘liq o‘zgarishi (Ω -to‘lqin soni), 1. $\nu = 0.15$; 2. $\nu = 0.25$; 3. $\nu = 0.35$ (muhit-elastik).



4-rasm. Kontur kuchlanishining to‘lqin soniga bog‘liq o‘zgarishi (Muhit qovushqoq-elastik).


5-rasmda (a, b, c) qovushqoq-elastik muhit, oraliq qatlam va silindrik qobiqlardan tashkil topgan tizimda kuch omillarining chastotaga bog‘liq o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Ushbu grafiklarda “muhit–qatlam–qobiq” tizimi uchun kuchlanish omillarining chastotaga nisbatan dinamik jarayoni tahlil qilingan. Natijalardan ko‘rinadiki, turli chastotalarda kuch omillarining qiymatlari sezilarli darajada farqlanadi, bu esa rezonans holatlari va energiya dissipatsiyasi jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.



5-rasm. Qobiqning kuch omillarining chastotaga bog‘liq o‘zgarishi (qatlam qovushqoq-elastik).


1. $\frac{E_2}{E_0} = 0,1$; 2. $\frac{E_2}{E_0} = 0,3$; 3. $\frac{E_2}{E_0} = 0,4$

Bunda parametrlarning quyidagi qiymatlari qabul qilingan: $\frac{R_1}{R_0} = 1,2$ (R_1 va R_0 - qatlamning mos ravishda tashqi va ichki radiuslari); $\frac{E_1}{E_0} = 0,4$, $\frac{\rho_1}{\rho_0} = 0,156$, $\nu_0 = \nu_1 = 0,25$, E_0, ρ_0, ν_0 - qatlamning elastiklik parametrlari, E_1, ρ_1, ν_1 - muhitning elastiklik parametrlari. 6-rasmda ikki qatlamli silindrik qobiqdan tashkil topgan “muhit–qatlam–qatlam” tizimda (qatlam –qovushqoq-elastik) kontur va radial kuchlanishlarning chastotaga bog‘liq o‘zgarishi tasvirlangan.



6-rasm. Ikki qatlamli silindrik qobiqdagi kontur va radial kuchlanishlarning chastotaga bog‘liq o‘zgarishi (muhit – qovushqoq-elastik).


7-rasmda esa uzun va qisqa to‘lqin uzunliklaridagi kontur kuchlanishi taqsimotining epyurasi tasvirlangan. Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, tizimdagi kuchlanish komponentlari chastotaning ortishi bilan ma’lum chegaralarda keskin o‘zgaradi. Ayniqsa, ayrim chastotalarda kuchlanishlarning lokal maksimumlarga ega bo‘lishi rezonans hodisalarining yuzaga kelish xavfini ko‘rsatadi.



7-rasm. Uzun va qisqa to‘lqin uzunliklarida kontur kuchlanish taqsimoti epyurasi

Dissertatsiyaning «**Statsionar bo‘lmagan to‘lqinlarning elastik muhitda joylashgan silindrik jismlar bilan o‘zaro ta’siri**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida, elastik muhitda joylashgan silindrik jismlar bilan turg‘un bo‘lmagan to‘lqinlarning o‘zaro ta’siri masalasining matematik qo‘yilishi, uni yechish metodikasi va hisoblash algoritmi bayon qilingan, shuningdek, sonli natijalar keltirilib, asosli xulosalar chiqarilgan.

Cheksiz elastik muhitda ichki bo'shlig'i bo'lmagan elastik silindr joylashgan deb faraz qilamiz (8-rasm). Qatlamli silindrga kuchlanishning turg'un bo'lmagan to'liqlari $\sigma_{xx}^{(i)}$ va $\sigma_{yy}^{(i)}$ tushadi, ularning old fronti silindrning bo'ylama o'qiga parallel. Tushayotgan kuchlanish impulsi ta'sirida silindr va uni o'rab turgan muhitning dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash talab etiladi.



8-rasm. Statsionar bo'lmagan to'liqlarning elastik muhitda joylashgan silindrik jism bilan o'zaro ta'siri hisob sxemasi

Silindrik qobiqqa tushayotgan nostatsionar to'liq (9) ko'rinishda bo'lsin. Boshlang'ich shartlar quyidagi ko'rinishda ifodalansin:

